

## IQTISODIYOTNI RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA DAVLATNING VAZIFALARI VA BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH

**Avlaev Muzaffar Tufliovich**

Toshkent Harbiy okrugi moliya xizmati katta ofitseri

Toshkent Harbiy okrugi moliya bo'limi katta ofitseri

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot va uning sohalarda tashkil etilishi, raqamlashtirish sharoitida davlatning vazifalari va boshqarish tizimini takomillashtirishdagi o'zini haqida so'z boradi. Bundan tashqari O'zbekistondagi raqamli iqtisodiyot holati, bu borada olib borilayotgan ishlar va ushbu sohadagi to'siqlar haqida bilib olishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Informatsion oqim, raqamli texnologiyalar, global iqtisodiyot, informatsion-kommunikatsiya, elektron hukumat, xalqaro reyting va indekslar, blokcheyn, IT-park, robototexnika, elektron tijorat.

### **Kirish**

Mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, har bir yarim yilda informatsion oqim ikki barobarga oshib bormoqda. Jadal sur'atlarda rivojlanish sharoitida raqamlashtirish zaruriyati yanada oshadi. Bu o'z navbatida, juda ko'p resurslarni talab qiladi. Shu bois hozirdan raqamli iqtisodiyotga o'tish muhim vazifaga aylanmoqda. O'zbekiston yaqin kelajakda aholi turmush darajasini tubdan yaxshilab, dunyoning rivojlangan 50 mamlakati qatoriga kirishni maqsad qilgan. Bu boradagi islohotlar jahon hamjamiyati tomonidan ham ijobiy baholanmoqda. Dunyodagi nufuzli nashrlardan biri - "Ekonomist" jurnali tomonidan O'zbekistonni 2019-yilda islohotlarni eng jadal amalga oshirgan davlat sifatida "Yil mamlakati" deb e'tirof etildi. Raqamli iqtisodiyot – bu yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirishdir. Raqamli iqtisodiyot yordamida iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning raqamli texnologiyalarini qo'llash asosida amalga oshirish mumkin bo'lgan tizimdir. Bunda raqamli iqtisodiyot yangi texnologiyalar, platformalar va biznes modellari yaratish va ularni kundalik hayotga joriy etish orqali mavjud iqtisodiyotni yangicha tizimga ko'chirish demakdir. Bu termin dastavval amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte tomonidan 1995-yilda kiritilgan, u bugungi kunda barcha sohalarda keng qo'llanib kelinmoqda. Raqamli iqtisodiyot inson omilisiz boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish orqali korrupsiyani kamaytiradi, soliq tushumlarini "aqlli" shartnomalar tuzish orqali ko'paytiradi, byudjet xarajatlaridagi "shaffof"likni oshiradi, yagona elektron platforma orqali davlat xizmatlarini ko'rsatish imkoniyatini beradi. Raqamli iqtisodiyotning yangi konsepsiyasi inson faoliyati doirasidagi barcha informatsiyalarni

raqamlashtirish texnologiyalarini qo‘llab saqlash, ishlov berish va uzatishning yagona tizimidir.

Iqtisodiyotni raqamlashtirish xalqaro mehnat taqsimotiga tobora qo‘shilib, global iqtisodiyotni rivojlantirishning asosiy omiliga aylanib bormoqda. Iqtisodiyotni raqamlashtirish orqali ijodiy yondashib yangi iqtisodiyotni barpo etish imkoniyati tug‘iladi. Iqtisodiyotni raqamlashtirish kelajakda real raqobatbardoshlikni uzoq muddatga saqlab qolish imkoniyatidir.

O‘zbekistonda Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlash bo‘yicha respublika kengashining tashkil etilishi ham bejiz emas. Bu reytinglar bir-biridan farqi iqtisodiyotni raqamlashtirishda inobatga olinadigan mezonlardir. Iqtisodiyotni raqamlashtirish darajasi Informatsion-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlanish indeksi, Iqtisodiyot va jamiyatni yevropacha raqamlashtirish indeksi, Raqobatbardoshlikni xalqaro raqamlashtirish indeksi, Xalqaro evolyusiya indeksi, Iqtisodiyotni raqamlashtirish indeksi, Aloqa tayyorlik indeksi, Elektron hukumatni rivojlantirish indeksi, Elektron qatnashish indeksi, Global qo‘shilish indeksi kabi bir nechta xalqaro indekslar yordamida aniqlanadi.

Keyingi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha izchil chora-tadbirlar tadbiriq etib kelinmoqda. Davlat organlari va boshqa tashkilotlarda elektron hujjat almashinuvi hamda jismoniy va yuridik shaxslarga xizmat ko‘rsatish uchun elektron tijorat tizimlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda.

Raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish, davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, undan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish, zamonaviy infratuzilmani qo‘llash maqsadida:

- Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sohasidagi, shu jumladan, “blokcheyn” texnologiyalarini joriy etish bilan bog‘liq loyihalarni davlat-xususiy sheriklik shartlarida amalga oshirish uchun investorlarning mablag‘larini jalb etish va birlashtirish asosiy vazifalaridan biri hisoblangan davlat muassasasi shaklidagi “Raqamli ishonch” raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda – Jamg‘arma) tashkil etilgan.

- O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, Agentlik, Iqtisodiyot vazirligi, Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasining “Universal Mobile Systems” MCHJ ustav kapitalidagi davlat ulushini 100 foiz miqdorda Jamg‘armaga beg‘araz asosda topshirish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilishi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev tomonidan 2018-yil 21-noyabrdagi qaror bilan tasdiqlangan. Bundan tashqari so‘ngi yillarda iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida davlat tomonidan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirish maqsadida Prezidentimiz tomonidan bir qator normativ-huquqiy hujjatlari imzolandi.

Raqamli iqtisodiyotni keng joriy etish va uni qo‘llab-quvvatlash mamlakatimizning istiqboldagi taraqqiyot rejasidan muhim o‘rin egallaganligi tufayli iqtisodiyotning raqamli sektorini rivojlantirish borasida keng ko‘lamli chora-tadbirlar belgilandi va mazkur vazifalar

ijrosi o‘laroq, mamlakatimizda yangi elektron hujjat aylanishi tizimlari joriy etilmoqda, elektron to‘lovlar rivojlantirilmoqda va elektron tijorat sohasidagi normativ-huquqiy baza takomillashtirilmoqda, elektron infratuzilma va tijorat shakllantirilmoqda, iqtisodiyotning barcha jabhalarida raqamli transformatsiyaga o‘tilishi bosqichma-bosqich amalga oshirilib kelinmoqda.

Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini barcha manfaatdor vazirliklar, idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlariga ko‘rib chiqish, elektron raqamli imzodan foydalangan holda kelishish uchun, shu jumladan bir vaqtning o‘zida keng jamoatchilik va mutaxassislar muhokamasini o‘tkazish va tezkor jo‘natish uchun vaqtni va mehnat resurslarini sezilarli darajada tejash maqsadida yagona elektron tizimi “project.gov.uz” joriy etildi. Mamlakatimizda zamonaviy dasturlash texnologiyalarini o‘zlashtirgan kadrlarni tayyorlash maqsadida “Bir million dasturchi” loyihasi ishlab chiqilib, loyiha doirasidagi mashg‘ulotlarni tashkil etish uchun [uzbecoders.uz](http://uzbecoders.uz) o‘quv portali ishga tushirildi foydalanishga topshirildi. Raqamli iqtisodiyot texnologik va biznes jarayonlari, ishlab chiqarish, logistika va tayyor mahsulotlarning savdosini raqamlashtirish uchun mamlakatimizda zamonaviy infratuzilmaga ega bo‘lgan “IT-park”lar tashkil etildi. Kripto-aktiv va blokcheyn texnologiyalar sohasidagi kompaniyalarning erkin faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

2020-yil mamlakatimizda “Ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili” deb e’lon qilindi va bu boradagi ishlar endilikda yangi bosqichga ko‘tarilib, Prezident Farmoni bilan mamlakatning “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uni amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda avvalo telekommunikatsiya va elektron infratuzilmani takomillashtirish alohida ahamiyatga ega. Albatta, aholini internet tarmog‘idan foydalanish darajasi qanchalik yuqori bo‘lsa raqamli iqtisodiyot, shu jumladan elektron hukumat tizimi ham shuncha samarali faoliyat yuritadi. Yurtimiz bo‘yicha internet foydalanuvchilari soni jami aholiga nisbatan 2018-yilda 46 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, 2021-yilda bu ko‘rsatkich 60 foizdan yuqori ekanligini ko‘rsatmoqda. “Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, balki ortiqcha xarajatlarni ham kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham samarali vositadir ” - Prezidentimizning mazkur so‘zlari raqamlashtirish nafaqat iqtisodiyot tarmoqlarida tejamkorlik va samaradorlikni ta’minlashi, balki korrupsiya va qora iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun samarali vosita sifatida qayd etilishi bilan ahamiyatlidir.

Lekin shuni ham ta’kidlash kerak-ki, O‘zbekistonda raqamli iqtisodiyot O‘zbekiston potensialiga nisbatan bir necha barobar sekinroq rivojlanmoda. Ya’ni imkoniyat bor, kerakli resurslar mavjud lekin rivojlanish ancha sust. Bunga sabab sifatida raqamli iqtisodiyotni O‘zbekistonda rivojlanishini bir qancha to‘siqlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

- ko'plab sohalardagi monopoliya;
- internet tezligini pastligi va uni sifatsizligi;
- axborot texnologiyalari sohasida qonunchilikning zamondan orqada qolganligi;
- fuqarolarda kompyuter savodxonligining o'ta pastligi;
- qonunchilikning shaffof emasligi;
- axborot texnologiyalari bo'yicha mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni boshqa mamlakatlarga ketib qolishi;
- axborot madaniyati, axborot gigiyenasi pastligi;
- axborot texnologiyalari xavfsizligi yaxshi emasligi;
- boshqaruv organlarida sohani tushunadigan mutaxassislarning kamligi yoki(ba'zilarida) ularning umuman yo'qligi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga hamda mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatiga keng qulaylik yaratish va uni yuritishni soddalashtirish, yangi innovatsion g'oyalar realizatsiyasiga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri ekanligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Yuqorida keltirilgan muammolar bosqicha-bosqich, tizimli, dunyo tajribasidan kelib chiqib hal qilinsa, O'zbekiston ham bimalol raqamli iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda biri bo'la oladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-noyabrdagi "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora – tadbirlari to'g'risidagi PF-6079 sonli farmoni
2. G'.M. Porsaev, B.SH. Safarov, D.Q. Usmanova. Raqamli iqtisodiyot asoslari. Darslik. –T.: "Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi", 2004.
3. <https://zarnews.uz/uz/post/raqamli-iqtisodiyot-bizga-nima-beradi>
4. <https://mineconomy.uz/uz/node/2389>
5. <https://yuz.uz/uz/news/ozbekistonda-raqamli-iqtisodiyotni-rivojlantirish>